

JISMONIY TARBIYA MISOLIDA O'QUVCHILARNING AXLOQIY SIFATLARINI QAROR TOPTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Kazakov Shavkat Norqobilovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining axloqiy sifatlarini tarbiyalashdagi jismoniy tarbiya fani imkoniyatlari, bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, ular faoliyatidagi samaradorlikni ta'minlovchi omillar xususida mulohaza qilingan. Shuningdek, jismoniy mashqlarning shaxs ma'naviy rivojlanishiga ijobiy ta'siri keltirib o'tilgan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogic-kasbiy kompetensiyalaridan tashqari, tashkiliy, kommunikativ, ritorik kompetentligini rivojlantirishning yetakchi usullari taqdim qilingan. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining axloqiy sifatlarini shakllantirishda "Jismoniy tarbiya" fani imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: global muammo, ommaviy madaniyat, axloqiy tarbiya, pedagogik muammo, kasbiy malaka, ritorik, kommunikativlik, tashkiliy, sog'lom turmush tarzi, kompetentlik, sase-study, zamonaviy texnologiyalar, muvaffaqiyat.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ НА ПРИМЕРЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Казаков Шавкат Норқобилович

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности физического воспитания в воспитании нравственных качеств старшеклассников, профессиональной компетентности будущего учителя физической культуры, факторы, обеспечивающие эффективность его работы. Также выявлено положительное влияние физических упражнений на духовное развитие личности, представлены ведущие методы развития организаторской, коммуникативной и риторической компетентности будущих учителей физической культуры. Разработаны рекомендации по эффективному использованию возможностей науки «Физическая культура» в формировании нравственных качеств учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: глобальная проблема, массовая культура, нравственное воспитание, педагогическая проблема, профессиональная квалификация, риторика, коммуникативные, организаторские, здоровый образ жизни, компетентность, кейс-стади, современные технологии, успех.

DIDACTIC PRINCIPLES FOR DETERMINING THE MORAL QUALITIES OF STUDENTS ON THE EXAMPLE OF PHYSICAL EDUCATION

Казаков Шавкат Норқобилович

Abstract. In this article, the possibilities of physical education in raising moral qualities of high school students, the professional competence of the future physical education teacher, and the factors that ensure the effectiveness of their work are considered. Also, the positive impact of physical exercises on the spiritual development of the individual was revealed, the leading methods for the development of organizational, communicative and rhetorical competence of future physical

education teachers are presented. Recommendations have been developed for the effective use of the possibilities of the science «Physical Culture» in the formation of the moral qualities of students in general education schools.

Key words: global problem, mass culture, moral education, pedagogical problem, professional qualification, rhetoric, communicative, organizational, healthy lifestyle, competence, case study, modern technologies, success.

Kirish. Dunyoda insoniyatni tashvishga solayotgan muammolar ichida axloqsizlik bilan bog'liq masalalar ko'lami yuqori o'ringa chiqmoqda. Globallashuv jarayoni, ommaviy madaniyatning qamrovi kun sayin kengayib borayotgan davrda inson axloqi masalasi global muammoga aylanmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya masalasi bo'yicha ta'lim tizimida samarali islohatlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kun yoshlar tarbiyasi masalasi nafaqat mamlakatimiz, balki butun insoniyat hamjamiyati oldidagi muhim muammolardan biri bo'lib turganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida yoshlar tarbiyasi masalasiga e'tibor qaratib, "Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, faravonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'osi "virusi" tarqalashining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz", degan edilar [1; 143]. Hozirgi kunda jamiyatning yoshlar odob-axloqini shakllantirishga qo'yayotgan talablari bilan bu masala yechimining yetarli darajada ishlab chiqilmagani o'rtasida ziddiyat mavjud. O'quvchilarning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda o'quv jarayonining imkoniyatli sinfda o'quv-pedagogik faoliyat sub'ektlarining pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan kognitiv o'zaro ta'siri va muloqati natijasida ortadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Ko'plab tadqiqotchilar pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish, oliygohlarda mutaxassis tayyorlashda kompetensiyaga asoslangan bitiruvchining yangi modelini qurish zarurligini ta'kidlaydilar. A.V.Xutorskiy ta'limni modernizatsiya qilishning muhim jihati uni kompetensiya asosida qurish ekanligini asoslashga harakat qiladi [7]. Bu yondashuv ta'limdagi mavjud muammolarni, turli murakkabliklarni yechish qobiliyati bilan belgilanadi, bunda asosan o'zlashtirilgan bilimdan unumli foydalana olishga e'tibor qaratiladi. V.A.Slastenin, A.K.Markova, A.M.Novikovlar mutaxassis kompetensiyasini ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar, fazilatlar, shaxsiy xususiyatlar to'plami sifatida ta'riflaydilar.

I.D.Demakova, L.G.Loginova, E.A.Lutseva, T.V.Sikorskaya, S.A.Xazova va boshqalar "Jismoniy tarbiya" fani o'qituvchisining kasbiy pedagogik kompetensiyasi asosan gnostik, ya'ni jismoniy madaniyat, jismoniy rivojlanish qonuniyatlari va psixologik talablar, shuningdek, o'qituvchining o'zini o'zi bilishi bilan izohlashadi. U tadqiqot va diagnostika qobiliyatlarini o'z ichiga olishini ta'kidlashadi. Gnostik kompetensiya o'qituvchining psixologik-pedagogik, hamda sohaga oid bilimlarga ega ekanligini bildiradi. O'qitiladigan fanning nazariy asoslari, jismoniy tarbiya va sport asoslari, texnologik xavfsizlik qoidalarini bilishi, sohaga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari va h.z. N.V.Kuzmina "Jismoniy tarbiya" fani o'qituvchisining kasbiy va pedagogik kompetensiyasini konstruktiv, tashkiliy, kommunikativ, va gnostik kabilarga ajratib ko'rsatadi [4]. "Jismoniy tarbiya" fani o'qituvchisi ta'limiy va tarbiyaviy, ijtimoiy-pedagogik, madaniy-ma'rifiy,

ilmiy-uslubiy, tashkiliy va boshqaruv ishlarini amalga oshirishi, hamda sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazib turishi maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash nafaqat davlat, balki jamiyat tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifadir. Maktabning bola tarbiyasidagi eng muhim tizimli, pedagogik asoslangan mustaqil ravishda o'z-o'zini tarbiyalash ishlarini tashkil qilishdan iborat bo'lib, o'quvchilarda shaxsning hatti-harakati bilan uning sifatlari o'rtasidagi aloqani tushunishni, o'zida qimmatli irodaviy sifatlarni tarbiyalashga intilishni tarkib toptirish, o'zini tarbiyalash bilan qanday shug'ullanish kerakligi to'g'risidagi o'quvchilarga tushuncha berish, o'smirlarning ijtimoiy foydali faoliyatini tarbiyaga va o'zini tarbiyalashga yordam beradigan qilib uyushtirish lozim.

Muhokama va natijalar. "Jismoniy tarbiya" fani o'qituvchilari faoliyatini pedagogik kuzatishlarimiz tahlili, murabbiylar tomonidan shakllantirilgan axloqiy xulq-atvorning ijobiy tajribalari tor doirada yo'naltirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi mashg'ulotlarda jismoniy mashqlarning insonning jismoniy rivojlanishidan tashqari ma'naviy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sirini o'quvchilarga yetkazib bera olishi lozim. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini zamon talablariga mos kadr sifatida tayyorlash ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Bizning fikrimizcha, mazkur jarayonda oliy o'quv yurtlari rahbarlari tomonidan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda jismoniy madaniyatning rolini yetarlicha baholamasligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat hollarda hozirgi zamonaviy davr sharoitida bo'lg'usi o'qituvchilarga qo'yilayotgan kasbiy talablar, yangi samarali shakllar va usullarini izlashga qodir emasligi va ko'pincha istamasliklari sabab bo'lmoqda [2; 71]. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ushbu jarayonni optimal psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish vazifasini dolzarblashtiradi. Bu o'z navbatida fan o'qituvchilarining yuqori shaxsiy va kasbiy kompetensiyaiga ega avlodini shakllantirishni taqozo etib, psixologik va pedagogik yordamning yuqori sifatiga erishishni talab qiladi. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchi-murabbiylari faoliyatidagi samaradorlik ko'p jihatdan ularning pedagogik kompetensiyaviyligi bilan bog'liq.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida jismoniy madaniyatning inson va jamiyatni takomillashtirish omili sifatida roli ortib bormoqda. Sog'lom turmush tarzi, jismoniy tarbiya va sport kuchli davlat hamda sog'lom jamiyat rivojiga xizmat qiluvchi, birlashtiruvchi kuch, milliy g'oyaga aylanmoqda. Shunga ko'ra, jamiyat tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasiga xizmat qiluvchi mutaxassislarni tayyorlash sifatiga, ularning kasbiy malakasi darajasiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga murojat qilish bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining texnologik rivojlanishidagi shaxsiy, umummadaniy rivojlanishga yo'naltirishga yordam beradi. Kasbiy kompetensiya o'qituvchining kasbiy muammolarini hal qilishga texnologik va pedagogik tayyorgarlik bilan bir qatorda, insonparvar pedagogik pozitsiyani, o'qituvchi pedagogik faoliyati, umumiy kasbiy madaniyatning yuqori darajasini anglatadi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida yangi yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishni taqozo qiladi.

Kompetensiya masalasida ikki xil yondashuvni ko'rishimiz mumkin. Bir guruh tadqiqotchilar kompetensiyani shaxsning ajralmas shaxsiy sifati tarzida qarasalar, boshqalari esa - faoliyatning tarkibiy qismlarini va uning jihatlarini tavsiflashga e'tibor qaratishib, muammolarni muvaffaqiyatli hal qiluvchi omili sifatida tasavvur qiladilar. Jismoniy tarbiyaning maqsadi insonning jismoniy rivojlanishini optimallashtirish,

ijtimoiy faol shaxsga xos ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash bilan birgalikda, jismoniy sifatlarini takomillashtirishdan iborat bo'lar ekan, pedagog-murabbiylar tarbiyalanuvchilarni samarali mehnat va boshqa faoliyatga tayyor bo'lishini ta'minlashi kerak.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'siri ostida kechadigan murakkab, ko'p komponentli ko'p bosqichli jarayondir. Bunda bitiruvchi talaba o'zini minimal hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lishi, o'zini mustaqil boshqara olishi, hayotiy muammolarni hal qilishga va aniq maqsadga erishishga intilish lozim. Bo'lajak o'qituvchi o'zi tanlagan sohaga qiziqishi juda muhim. Chunki, kompetentlik faqat insonlar uchun qiziqarli bo'lgan faoliyatni amalga oshirish jarayonida rivojlanadi va o'zini namoyon qiladi [5]. Belkina A.S, Nesterova V.V. pedagogik kompetensiyani vakolatlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan kasbiy va shaxsiy fazilatlar majmui sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha pedagogik kompetensiya qator kompetensiyalar bilan ifodalanadi: kognitiv kompetensiya (kasbiy va pedagogik bilimdonlik); psixologik kompetensiya (hissiy madaniyat, hissiy sezuvchanlik, psixologik xushyorlik); kommunikativ (muloqat madaniyati va pedagogik madaniyati); kasbiy va texnologik (pedagogik texnologiyalar); professional ma'lumot (axborot bo'yicha yo'naltirish, qidirish, baholash, foydalanish va saqlash); monitoring kompetensiya (pedagogik voqelik hodisalarini va ularning rivojlanishini kuzatish, tahlil qilish va prognozlash) [3].

“Jismoniy tarbiya” fani o'qituvchisining tashkiliy (boshqaruv) kompetensiyasi o'quv jarayonini, o'quvchilarning jismoniy tarbiya faoliyatini va o'qituvchining xatti-harakatlarini tashkil etish qobiliyatidan iborat bo'lib darsda o'quv materialini to'g'ri taqdim etish uchun aniq maqsadlarni belgilashdan iborat. O'qituvchining ritorik kompetensiyasi (nutqning o'zaro ta'siri madaniyati) o'quv mashg'ulotlari samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. O'qituvchining “nutq ma'suliyatini oshirish” professionallik uchun zaruriy shartlardan biridir. Murabbiy so'zining ta'sirchanligi, nutqning ravshanligi, ota-onalar bilan muloqat qilish qobiliyati, sport zalining akustik sharoitlariga e'tibor qaratishi zarur. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishda yetakchi usullardan biri sase-study bo'lib, undan foydalanishning samaradorligi ham o'qituvchi, ham o'quvchi faolligini ta'minlaydi. Mazkur metod vaziyatni tahlil qilish usuli bo'lib, nafaqat biror muammoni ifodalovchi, balki mazkur muammoni hal qilishda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan muayyan bilimlar majmuini dolzarb qiluvchi real vaziyatni hisobga olishni va anglab yetishni ko'zda tutadi. Sase-study – amaliy vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni qo'llash asosida maqbul yechim beruvchi texnologiyadir. Bu usul ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, muqobil nuqtai nazarni tinglash va hisobga olish, o'z nuqtai nazarni dalillar yordamida ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi”[8]. Bunda muammoning o'zi bir xil yechimga ega emas.

O'quvchining jismoniy tarbiya faniga qiziqishi odatda jismoniy tarbiya va sport faoliyatning motivlari va maqsadlari asosida vujudga kelib ular quyidagilardir:

- o'quv jarayonidan qoniqish (hissiylik, muloqot, xilma-xillik va boshqalar);
- dars natijalari (yangi bilimlarni, harakatlarni o'zlashtirish, o'zini sinab ko'rish, natijani yaxshilash);
- sinfdagi muvaffaqiyat (shaxsiy fazilatlarini tarbiyalash, sport bo'yicha mahoratini oshirish, salomatligini mustahkamlash) va h.z.

Agar o'quvchi jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini bajarishda aniq maqsadga ega bo'lmasa qiziqish ko'rsatmaydi. O'quvchining jismoniy tarbiya darslariga qiziqishi maqsadga muvofiqlik, aniqlik, chuqur motivatsiya, manfaatlarning

barqarorligi, mashg'ulotlarning muntazamligi, musobaqalarning tashkil qilinishi, faollik va tashabbuskorlik bilan bevosita bog'liq. Ta'lim jarayonida axloqiy irodaviy rivojlanishning diagnostikasini olib borish orqali o'quvchilarda axloqiy sifatlarni takomillashtirish natijalarga erishish mumkin bo'lar edi. Ammo ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilish mumkin, ammo tarbiya jarayonini baholash indikatorlari ishlab chiqilmagan. Bu jarayon asosan sifat ko'rsatkichlari bilan emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlar bilan belgilanmoqda.

Xulosa. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining axloqiy sifatlarini shakllantirishda "Jismoniy tarbiya" fani imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'sib kelayotgan yosh avlodda sabr-toqat, iroda, mehnatsevarlik, hamdardlik, jamoaviylik, vatanparvarlik kabi ko'plab axloqiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini zamon talablariga mos kadr sifatida tarbiyalash Oliy ta'lim muassasalari oldidagi eng muhim vazifa sifatida qaralishi, umumta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Har bir tarbiyachi-pedagog qaysi fan o'qituvchisi bo'lishidan qat'iy nazar, dars jarayonida ta'limiy vazifani qo'yish bilan birga tarbiyaviy vazifaga ham birlamchi vazifa sifatida qarashi lozim. Buning uchun tarbiyachining o'zi tarbiya borasida namuna bo'la olishi talab qilinishini anglashi zarur. Shundagina pedagog o'z vazifasini to'laqonli bajara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Валиев А.А. Ватанпарвар ёшлар тарбиясида ёшлар тарбиясида иймон-этикод туйғуларини шакллантириш // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022. № 7. -Б.143.
2. Банников С.Е., Абезин С.А., Валеев А.Р. Роль спорта в формировании у студентов базовых духовно-нравственных качеств XXI века// инновационный потенциал молодежи: культура, духовность и нравственность. 2019. -с.71. (68-72 б).
3. Белкин А.С. Педагогическая компетентность / учебное пособие А.С.Белкин, Белкин В.В. – Екатеринбург: Учебная книга, 2003. -С. 188.
4. Кузьмина, Н.В. Предмет акмеологии / Н.В. Кузьмина. – СПб.: Политехника, 2002. –С. 188.
5. Джон Равен. Педагогическое тестирование: проблемы, заблуждения, персекутивы / Джон Равен; пер.с англ.-2-е изд., -М.: Когито Центр, 2001. -142.
6. Маринченко, К.А. Формирование компетентности профессионально-личностного самосовершенствования будущих преподавателей физической культуры в вузе: автореферат дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / К.А. Маринченко. – Орел, 2012. –С. 24. // Библиотека диссертаций. – Режим доступа: <http://www.dslib.net/prof-obrazovanie/formirovaniehtml>
7. Хуторский А.В. Определение общепредметного содержания ключевых компетенций как характеристика нового подхода к конструированию образовательных стандартов // www.eiudos.ru/news/compet-dis
8. Юлдашев З.Ю., Бобохужаев Ш.И. Инновационные методы обучения: особенности кейс-стади метода обучения и пути его практического использования. – Ташкент: IQTISOD-MOLIYA, 2006. – 88 с.